

SOVET DAVRIDA SURXONDARYO VILOYATIDAGI MASJIDLAR VA DINIY SIYOSAT

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0005-9698-039X>

e-mail: dgadoyev39@gmail.com

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada sovet hokimiyatining Surxondaryo viloyatidagi masjidlar va diniy muassasalarga nisbatan yuritgan siyosati arxiv manbalari asosida tahlil qilingan. Maqolada vaqf mulklarining musodara qilinishi, masjid binolarining boshqa maqsadlarda foydalanishga topshirilishi, Ikkinchi jahon urushi yillaridagi nisbiy yumshash va 1980-yillardagi qat'iy ma'muriy nazorat jarayonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, sovet siyosati, masjidlar, vaqf mulki, ateizm, "Xudosizlar ittifoqi", Hakim Termizi, diniy nazorat.

Аннотация: В данной статье на основе архивных источников анализируется политика советской власти в отношении мечетей и религиозных учреждений Сурхандарьинской области. В работе освещаются процессы конфискации вакуфного имущества, использование зданий мечетей в иных целях, относительное смягчение религиозной политики в годы Второй мировой войны, а также процессы строгого административного контроля в 1980-х годах.

Ключевые слова: Сурхандарья, советская политика, мечети, вакуфное имущество, ateizm, «Союз безбожников», Хаким Термизи, религиозный контроль.

Abstract: This article analyzes the policy of the Soviet government regarding mosques and religious institutions in the Surkhandarya region based on archival sources. The paper examines the confiscation of waqf property, the conversion of mosque buildings for other purposes, the relative relaxation of religious policy during the Second World War, and the processes of strict administrative control in the 1980s.

Keywords: Surkhandarya, Soviet policy,

mosques, waqf property, atheism, "Union of the Godless", Hakim Termizi, religious control.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Sovet davri O'zbekiston tarixining eng ziddiyatli davrlaridan biri bo'lib, bu davrda jamiyat hayotining barcha jabhalari, xususan, diniy soha ham tub o'zgarishlarga yuz tutdi. Sho'ro hukumati hokimiyatga kelgan dastlabki yillardanoq dinni jamiyat mafkurasidan siqib chiqarish, diniy muassasalarning iqtisodiy mustaqilligini tugatish va aholi orasida ateistik dunyoqarashni shakllantirishni o'zining ustuvor vazifasi deb bildi.

Surxondaryo viloyati o'zining qadimiy diniy an'analari va islomiy qadamjolari bilan ajralib turuvchi hudud sifatida sovet diniy siyosatining o'ziga xos bosqichlarini boshidan kechirdi. Bu jarayon viloyatda nafaqat mafkuraviy tazyiqlar, balki masjidlarining moddiy asosi bo'lgan vaqf mulklarining davlat tasarrufiga olinishi va muqaddas binolarning ma'muriy-xo'jalik obyektlariga aylantirilishi bilan xarakterlanadi. Mazkur maqolada arxiv hujjatlari va davriy ma'lumotlar asosida 1920-yillardan boshlab 1980-yillarning oxirigacha bo'lgan davrda Surxondaryodagi masjidlar taqdiri va davlatning diniy siyosati dinamikasi yoritib beriladi.

МУХОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbekiston SSR tashkil topgandan keyin vaqf idoralarining muhim vazifalaridan biri masjidlar tasarrufidagi vaqf mulklarini to'liq hisobga olish va ularni davlat nazoratiga olishdan iborat edi. Bu jarayon murakkab va mashaqqatli bo'lishiga qaramay, Bosh vaqf boshqarmasi 1925-yil sentyabr oyi oxirlariga kelib respublikaning aksariyat hududlarida masjidlar ixtiyoridagi savdo nuqtalari, hunarmandchilik ustaxonalari hamda

boshqa xo‘jalik obyektlarini ro‘yxatga olish ishlarini deyarli yakunladi [1-128]. Biroq Surxondaryo hududida istiqlochlilik harakatining davom etib turgani sababli masjidlar bilan bog‘liq vaqf mulklarini to‘liq hisobga olish ishlari bir muddat kechiktiriladi. Shunga qaramay, respublikaning boshqa viloyatlarida masjidlar tasarrufidagi vaqf mulklarini aniqlash va rasmiy ro‘yxatga olish ishlari amalga oshiriladi. Keyingi bosqichda, ya‘ni 1928–1929-yillarda ushbu jarayon Surxondaryo okruglarini ham qamrab oldi. Mazkur islohotlarni tartibga soluvchi dekretlar asosida masjidlar va diniy muassasalar tasarrufida bo‘lgan vaqf yerlarining belgilangan me‘yorlardan ortiq qismi, shuningdek xo‘jalik yuritish uchun foydalanilgan ish hayvonlari hamda mehnat qurollari davlat tomonidan tortib olinib, yangi iqtisodiy siyosat doirasida qayta taqsimlanadi [2-483]. Natijada Surxondaryo hududidagi masjidlarning iqtisodiy tayanchi bo‘lgan ko‘plab vaqf mulklari qisqartirilib, ularning moddiy asoslari sezilarli darajada zaiflashadi.

1926-yilga qadar Surxondaryo hududida qariyb 500 ga yaqin masjid faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ular nafaqat diniy ibodat maskani, balki mahalliy aholining ijtimoiy-ma‘naviy hayotida muhim o‘rin tutgan. Biroq sovet hokimiyatining diniy siyosati kuchayishi natijasida keyingi yillarda mazkur masjidlarning katta qismi o‘zining dastlabki vazifasini yo‘qotib, turli xo‘jalik va ma‘muriy maqsadlarda qayta foydalanila boshlandi. Jumladan, 1925-yilda Jarqo‘rg‘on tumanida tashkil etilgan ilk kasalxona eski masjid binosida joylashtirilgan bo‘lib, unda dastlab harbiy lazaret faoliyat ko‘rsatgan va u orqali mahalliy aholiga ham tibbiy xizmat ko‘rsatilgan [3-145]. Bu holat sovet davrida diniy inshootlardan amaliy-ma‘muriy ehtiyojlar yo‘lida foydalanish siyosatining dastlabki ko‘rinishlaridan biri edi. Shuningdek, 1914–1916-yillarda Amir Olimxon tomonidan Surxondaryo hududida bunyod etilgan *Jome masjidi* ham dastlab hududning muhim diniy-ma‘naviy markazlaridan biri hisoblangan. Ammo 1920-yillardan boshlab sovet hokimiyatining diniy muassasalarga nisbatan olib borgan siyosati natijasida ushbu

masjidning faoliyati to‘xtatilib, uning binosi turli maqsadlarda foydalaniladi. Dastlab u Qizil Armiya shtabi sifatida xizmat qilgan bo‘lsa, 1927-yilda bu yerga viloyat partiya qo‘mitasi joylashtirildi. 1930-yildan e‘tiboran esa masjid binosi “*Xudosizlar ittifoqi*” tasarrufiga o‘tkazilib, ateistik targ‘ibot markazlaridan biriga aylantirildi. Keyingi davrda ushbu binoda Siyosiy maorif uyi (Dom politprosveshcheniya) faoliyat yuritgan. Bundan tashqari, Termiz shahrida Amir Abdulahadxonga tegishli bo‘lgan uy ham o‘zining dastlabki diniy-ma‘rifiy ahamiyatini yo‘qotib, sovet davrida viloyat komsomol qo‘mitasining idorasi sifatida qayta foydalanishga topshirilgan [4-78].

1944-yil oxiri – 1945-yil boshlariga kelib, Ikkinchi jahon urushi yillarida davlatning diniy siyosatida kuzatilgan nisbiy yumshash natijasida Surxondaryo hududida ham masjidlarni qayta tiklash jarayonlari ma‘lum darajada jonlana boshladi. Mahalliy musulmon aholi tashabbusi bilan viloyatda 10 ta masjid qayta qurilib yoki ta‘mirlanib, ibodat uchun foydalanishga topshirildi. Shu bilan birga, mazkur davrda respublika miqyosida ham shunga o‘xshash jarayonlar kuzatilib, umumiy hisobda 108 ta masjid musulmon jamoalari sa‘y-harakatlari bilan tiklangan yoki qayta ta‘mirlangan. Bu holat urush yillarida diniy hayotning qisman faollashgani hamda mahalliy aholining masjidlarni qayta tiklashga bo‘lgan intilishi kuchli bo‘lganini ko‘rsatadi [5-44].

1945-yil 28-yanvarda SSSR Xalq Komissarlari Soveti raisining o‘rinbosari V. Molotov tomonidan qabul qilingan 1324-R-sonli farmoyishga muvofiq, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi tasarrufiga ibodat va ziyorat amallarini ado etish uchun bir qator muqaddas qadamjolar rasmiy ravishda ajratib beriladi. Mazkur hujjat asosida O‘rta Osiyo hududida jami 7 ta muqaddas ziyoratgoh musulmon jamoalarining foydalanishiga topshirilgan bo‘lib, ular orasida Surxondaryo hududida joylashgan *Hakim Termiziy* majmuasi ham muhim o‘rin egallagan.

Surxondaryo viloyatida sovet davrida masjidlarni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish masalasi ko‘pincha murakkab byurokratik

jarayon bilan kechgan. Jumladan, Denov tumani aholisi 1970-yildan boshlab tuman markazidagi masjidlardan birini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish masalasida bir necha bor tegishli davlat organlariga murojaat qilgan bo'lsa-da, ushbu talab uzoq yillar davomida qanoatlanirilmagan [9-96]. Bu holat sovet davrida diniy muassasalar faoliyatini rasmiylashtirish jarayoni qat'iy nazorat ostida bo'lganini ko'rsatadi. Shunga qaramay, 1981-yilga kelib Surxondaryo viloyatida diniy hayotning muayyan darajada saqlanib qolganini kuzatish mumkin. Mazkur davrda viloyat hududida jami 4 ta rasmiy ro'yxatdan o'tgan diniy muassasa faoliyat yuritgan bo'lib, ular orasida "Murch bobo" hamda "Jome" masjidleri alohida ahamiyat kasb etgan. Bu masjidlar viloyat musulmon aholisi uchun asosiy ibodat maskanlari sifatida xizmat qilgan. Bundan tashqari, viloyat hududida boshqa konfessiyalarga mansub diniy muassasalar ham mavjud bo'lib, xususan 2 ta pravoslav cherkovi ham rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tgan holda faoliyat yuritgan. Shu bilan birga, Surxondaryo viloyatining diniy hayotida muqaddas qadamjolar ham muhim o'rin tutgan. Manbalarga ko'ra, viloyatda jami 16 ta muqaddas ziyoratgoh mavjud bo'lib, ular mahalliy aholi tomonidan katta ehtirom bilan ziyorat qilinadigan diniy markazlar sifatida qadrlangan [10-98].

XX asrning 80-yillarning boshlariga kelib Surxondaryo viloyatida diniy faoliyat, xususan masjidlar va ular bilan bog'liq diniy xizmatchilar faoliyati ustidan davlat nazorati yanada kuchaytiriladi. 1982-yilda moliya organlari tomonidan olib borilgan tekshiruvlar natijasida viloyatda faoliyat yuritayotgan 399 nafar diniy ulamoga nisbatan soliq majburiyatlari qo'llanilgan. Mazkur choralar masjidlar atrofida shakllangan diniy faoliyatni iqtisodiy jihatdan nazorat qilishga qaratilgan edi. Shu bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan diniy faoliyatni sovet qonunchiligi doirasida tartibga solish maqsadida qator jinoiy ishlar ham qo'zg'atilgan. Xususan, prokuratura organlari tomonidan "din to'g'risidagi sovet qonunlarini buzish" aybi bilan 39 nafar shaxsga nisbatan jinoiy ish ochilgan bo'lib, ularning 29 nafari

jinoiy javobgarlikka tortilgan [6-23]. Ushbu holatlar Surxondaryo hududida masjidlar va diniy xizmatchilar faoliyati ustidan sovet davrining so'nggi bosqichlarida ham qat'iy ma'muriy-huquqiy nazorat saqlanib qolganini ko'rsatadi.

1980-yillarda Surxondaryo viloyatida diniy marosimlar, xususan masjidlar bilan bog'liq hayit ibodatleri cheklangan sharoitda amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularni o'tkazish an'anasi saqlanib qolingani. Jumladan, 1983-yilda viloyatning 6 ta hududida Qurbon hayiti munosabati bilan hayit namozleri tashkil etilib, ushbu marosimlarda jami qariyb 2000 nafar musulmon ishtirok etgan [7-65]. Bu tadbirlar asosan rasmiy ro'yxatdan o'tgan masjidlar hamda diniy marosimlarni o'tkazishga ruxsat berilgan joylarda o'tkazilgan. Biroq shu davrda respublikaning ayrim hududlarida, jumladan Surxondaryo viloyatida ham hayit namozleri qatnashuvchilar sonining kamayishi kuzatilgan. Manbalarga ko'ra, viloyatda hayit namozida ishtirok etganlar soni 530 kishiga qisqargan [8-73]. Mazkur holat sovet davrida diniy marosimlar ustidan olib borilgan ma'muriy nazorat, ateistik targ'ibot siyosati hamda diniy faoliyatga qo'yilgan turli cheklovlar bilan izohlash mumkin.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sovet hokimiyatining Surxondaryo viloyatidagi diniy siyosati tizimli va ko'p bosqichli xarakterga ega bo'lib, u asosan islom dinining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy poydevorini yo'q qilishga yo'naltirilgan edi. Dastlabki yillarda vaqf mulklarining musodara qilinishi masjidleri iqtisodiy tayanchdan mahrum etgan bo'lsa, keyinchalik muqaddas binolarning kasalxona, harbiy shtab va ateistik targ'ibot markazlariga aylantirilishi aholi ongida diniy qadriyatlarni so'ndirishga xizmat qildi. Garchi Ikkinchi jahon urushi yillarida strategik maqsadlar yo'lida diniy hayotda ma'lum bir yumshash kuzatilib, Hakim Termiziy kabi muqaddas qadamjolarga ruxsat berilgan bo'lsa-da, 1970–1980-yillarga kelib ma'muriy-huquqiy nazorat va soliq bosimi qaytadan kuchaytirildi. Xulosa qilib aytganda, sho'ro davrida Surxondaryo vohasidagi masjidlar faoliyati qat'iy cheklovlar

va byurokratik to'siqlar ostida qolganiga qaramay, mahalliy aholi o'z e'tiqodi va milliy o'zligini saqlab qolishga intildi, bu esa keyinchalik mustaqillik davrida diniy-ma'rifiy tiklanish jarayonlari uchun tarixiy zamin bo'lib xizmat qildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Якубов З.И. Религиозные институты в Узбекистане (1917–1930 гг.). – Ташкент: 2003. – Б. 128.
2. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1939-991 йиллар. Масъул муҳаррир М.Рахимов., Р.Абдуллаев., Қ.Ражабов. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019. – Б. 483.
3. Ибрагимовна Н. Ўзбекистонда совет ҳукуматининг маданий-маънавий сиёсати ва унинг натижалари(Сурхон воҳаси ҳудуди мисолида, 1917 – 1941 йй.) – Тошкент: Тафаккур, 2022. – Б. 145.
4. Умаров И. Тарихий демографик жараёнларда Термиз шахрининг ўрни // Сурхондарё: илм ва тафаккур. Илмий мақолалар журнали. –Термиз, 2020 йил 1-сон. –Б. 78.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi. 2456-fond, 1-ro‘yxat, 5 – ish. 44 varaq.
6. O‘zbekiston Milliy arxivi. 2456-fond, 1-ro‘yxat, 665-ish, 23-varaq.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi. 2456-fond, 1-ro‘yxat, 665-ish, 65-varaq.
8. O‘zbekiston Milliy arxivi, 2456-fond, 1-ro‘yxat, 649-ish, 73-varaq.
9. O‘zbekiston Milliy arxivi. 2456-fond, 1-ro‘yxat, 635-ish, 96-varaq.
10. O‘zbekiston Milliy arxivi. 2456-fond, 1-ro‘yxat, 635-ish, 98-varaq.